

№ (7)42
15.04.2025



SCIENCE SHINE


ISSN: 3030-377X

International scientific journal

Xalqaro ilmiy jurnal

Международный научный журнал

ILM NURI



Google

zenodo

CITE INDEX

ABSTRACT

This international scientific journal is created for new scientific research.

Articles are accepted in the following areas:

- specific and technical directions
- social directions
- directions of philology
- pedagogic directions
- natural science



SCIENCE SHINE
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC JOURNAL

ILM NURI
XALQARO
ILMIY JURNALI

СВЕТ НАУКИ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ
НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ



INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

SCIENCE SHINE

Issue 7(42)

15. 04. 2025

I^WI WORLD
of JOURNALS



Google
Scholar



zenodo



OpenAIRE



**International scientific
journal
“SCIENCE SHINE”**

Bosh muharrir:

Abdul Khalil Ahmadoughli

Jurnal bir oyda ikki marta
chop etiladi.

**O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti**

Administratsiyasi

huzuridagi

Axborot va ommaviy

kommunikatsiyalar

agentligi tomonidan 2023-

yil 16-fevralda

№063974 sonli guvohnoma

bilan davlat ro'yxatidan

o'tkazilgan.

ISSN 3030 – 377X

Jurnaldan maqola ko'chirib
bosilganda, manba
ko'rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14

E pochta: talqin@bk.ru

Veb sayt:

<http://science-shine.uz/>

Tahrir kengashi:

Abdulkarimov Jamoliddin

Xo'jand davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi, Tojikiston

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich

Namangan Impuls tibbiyot instituti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Mamatov Obidxon Vaqqosovich

University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi dotsenti

Masharipova Gularam Kamilovna

Falsafa fanlari doktori, professor

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Djo'rayev Mabruk Ma'murjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi

Davlat adabiyot muzeyi

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o'g'li

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Qo'qon filiali o'qituvchisi

Jo'rayeva Sobira Eshqurbonovna

O'zMU jurnalistika fakulteti, o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Madraximov Ilxomjon Sobirovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'zbek tili kafedrasi dotsenti

Sharipova Nargizaxon Abduqahhorovna

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Qo'qon filiali v.b dotsenti, PhD

Azizov Olimjon Toxirovich

Toshkent kimyo texnologiya instituti GSKMT kafedrasi dotsenti

Nuridinov Turdiali Qambarovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD

Nurmanova Barno Axmadjon qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

“Magistratura” bo'limi boshlig'i, PhD

Xamraqulov Serobjon Soliyevich

Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD

Haydarova Umida Xojiakbar qizi

Farg'ona davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasi o'qituvchisi

Nozima Mamadjanova Adxamovna

Namangan davlat universiteti Ingliz tili fani o'qituvchisi,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yusupova Gullola To'xtamurodovna

Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD

Abdurazakova Kamolaxon Yusupovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

ijtimoiy - gumanitar fanlari kafedrasi katta o'qituvchisi

siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'ZBEK XALQINING MODDIY VA NOMODDIY MADANIY MEROSI

Ulug'bek Mirshayev

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası katta
o'qituvchisi

Jasmina Hamroyeva

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada moddiy va madaniy meros tushunchasini o'rganish, O'z madaniy merosni tiklashga bo'lgan intilishlar, uni muhofaza qilish, rivojlantirish va uning ahamiyatini targ'ib etishga bo'lgan alohida e'tiborni ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: moddiy meros, nomoddiy meros, madaniyat, Yunesko, osori-atiqalar, yodgorliklar, artefakt, o'tmish.

TANGIBLE AND INTANGIBLE HERITAGE OF THE UZBEK PEOPLE

Ulug'bek Mirshayev

Senior lecturer, Department of Music Performance and Culture, Bukhara State
University.

Jasmina Hamroyeva

Student of thd Department of Music Performance and Culture, Bukhara State
University

Annotation: This article explores the concept of tangible and cultural heritage, the aspirations to restore one's cultural heritage, its protection, development, and special attention to promoting its importance.

Key work: material heritage, intangible heritage, culture, Unesco, antiques, memorials, artifact, the past.

O'zbek xalqining o'tmishi uzoq tarixga borib taqaladi. Bu davr ichida xalqning ham moddiy, ham ma'naviy madaniyati jahon sivilizatsiyasining o'lmas namunalariga aylandi. Xususan, o'zbek xalqining nomoddiy madaniy merosi asrlar osha ajdodlar tomonidan sayqallanib, xalqning bebaho mulki bo'lish bilan bir qatorda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirishning muhim subyekti sifatida baholandi. Zero, nomoddiy madaniy meros

insonni tarbiyalaydi, ulug'laydi. Tabiat va hayot go'zalligini ochib beradi. Unga mehr- muxabbat munosabatini oshiradi. Shu bilan birga nomoddiy madaniy meros muhim aqliy vazifani ham bajaradi. «Biz har qanday qobiliyatda yozilgan asarni hayotimizdagi faktlarni o'rganishga ko'maklashganligi uchun qadrlaymiz va e'zozlaymiz» - deb yozadi Gyote.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimov o'zining bir qator asarlarida milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini hal qilishda asosiy vazifa sifatida ma'naviyatni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilish, ulaming bu jarayondagi o'mi va rolini yaxshi anglab yetish lozimligini alohida ta'kidlab o'tgan. Shu bilan birga har qanday xalq yoki millatni unga tegishli bo'lgan ma'naviyat, tarix, o'ziga xos urf-odat va an'analar, hayotiy qadriyatlardan ayrim holda tasavur etib bo'lmasligi qayd etildi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillar bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda milliy madaniyatni, xususan nomoddiy va moddiy madaniy merosni muhofaza qilish, rivojlantirish va uning ahamiyatini targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunonchi, 1999 yilda birinchi prezidentimiz tashabbusi bilan YUNESKO tomonidan xalq og'zaki ijodining nodir durdonasi bo'lmish "Alpomish" dostonining 1000 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining 2000 yil 14 martdagi PF-2562-sonli Farmoniga asosan "O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi" unvoni ta'sis etildi, bu esa xalqimizning madaniy merosiga bo'lgan yuksak ehtiromning yorqin misolidir. 2001 yil 30 avgustdagi 269-II-sonli "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan.

Xalqning yoki ma'lum bir mintaqaning madaniy merosi uning o'ziga xos madaniy merosidir, ya'ni ularning shaxsiyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan moddiy va nomoddiy boyliklar to'plami ijtimoiy va madaniy, ya'ni ular o'sha mamlakat yoki mintaqaga xos xususiyat sifatida qabul qilinadi.

Nomoddiy madaniy meros tushinchasi - tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf- odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), o'ziga xoslikni ifodalash shakllari, bilimlar va ko'nikmalarni, shuningdek, ular bilan bog'liq jihozlar, predmetlar, artefaktlar va madaniy makonlarni aks ettiradi.

Moddiy meros - ko'chmas mulk - bu o'sha joylar yoki binolar, ularni bir joydan boshqa joyga o'tkazish mumkin emas. Moddiy merosga qadimiy sivilizatsiyalarning kundalik hayotidan qolgan san'at asarlari, kitoblar, hujjatlar, fotosuratlar, idishlar

kiradi. Bu madaniy an'ana yoki mavjud bo'lgan yoki allaqachon yo'q bo'lib ketgan sivilizatsiya haqida noyob ma'lumotlar beradi.

Qadim o'tmishimizda ham ajdodlarimiz madaniy merosimizga boshqacha mehr bilan qarashgan. Ijtimoiy taraqqiyotning talab va ehtiyojlari tufayli vujudga keladigan yangiliklar voqelikka aylanadi. Bu yangi narsa eskidan olinib, mukammalroq bo'ladi. Oqibat natijada, xalq ijodiyotining ajoyib namunalari har bir davrda rivojlanib yangilanib boradi. Xalq ijodi ayni vaqtda bu jarayon insoniyatning badiiy tajribasidagi an'analari o'zlashtirish bilan ham bog'liqdir.

O'zbek xalqi umumjahon madaniyati rivojlanishiga o'zining sezilarli hissasini qo'shgan va ayni vaqtda umuminsoniy madaniyatdan oziq olib rivojlangandir. Albatta buning zamirida o'zbek xalqining madaniy merosi va uning o'lmas namunalari turgan. Bosh Qomusimizda qadimiy obidalar, noyob osori-atiqalar, qimmatli kitob va qo'lyozmalar, san'at namunalari bilan birga, madaniy boylik sifatida nomoddiy merosimiz muhofazasi ham kafolatlangan.

Xulosa: Insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy madaniyat yaxlit bir butunlikni tashkil etadi. Din, tarix, falsafa, qadriyatlar, urf-odat va marosimlar shu muazzam daraxtning shoxlari, xalq ijodi, dunyoqarashi va flkriy kashfiyotlari esa uning ildizidir. Dunyodagi boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqining ham madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharqning ma'naviy o'choqlaridan biri bo'lib xizmat qilgan.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

- Vazirlar Mahkamasining "2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 2010-yil 7-oktabrdagi 222-son qarori.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2011-yil 23-fevraldagi 47-son qarori.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-405-son [qarori](#).

- Haydarov.Z.U "Nomoddiy madaniy meros" Namangan -2014.

- YOSH OLIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI in-academy.uz/index.php/y



MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ Тўхтамуродов Абдулло Шухратилла ўғли	4
2.	UNLOCKING VOCABULARY: EMPOWERING LEARNERS THROUGH COLLIGATION-BASED DISCOVERY Sarimsakova Nazokat Yusupova Muxabbat Anatolevna	10
3.	MUSIQA MADANIYATI FANI ORQALI BOLALAR ONGIDAGI SALBIY BLOKLARNI BARTARAF ETISH Numonova Gulnoz Adilovna	17
4.	O'QUVCHI YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH Abdullayeva Zilola Baxtiyor qizi	20
5.	IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISHNING AKSIOLOGIK MASALALARI Erkinova Zilola Ergash qizi Tuliyev Qurbonboy Qadamboy o'g'li	28
6.	URBAN PLANNING METHODS FOR REDUCING THE IMPACT OF HARMFUL GASES FROM MOTOR VEHICLES: A CASE STUDY OF KHIVA CITY Akhmedov Qadir Karimovich Umirbaev Kuvondik Nemat ugli	38
7.	SSENARIY – ESTRADA VA OMMAVIY TOMOSHALAR DRAMATURGIYASINING ASOSI Ikramov Shaxobiddin Najmiddinovich	42
8.	TOM SO'ZINING ETIMOLOGIYASI VA HUDUDIIY TAFOVUTLARI (MAHMUD KOSHG'ARIY ASARLARI ASOSIDA) Jo'rayeva Sevinch Bonu Mustafo qizi	50
9.	TALABA YOSHLARNING TARAQQIYOT MAZMUNINI ANGLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI Razzoqova Nafosat Ramiz qizi	53
10.	BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TANQIDIY FIKRLASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI VA AFZALLIKLARI M.B.Raximova	57
11.	PEDAGOGLARNING STRESSGA BARQARORLIK DARAJASI VA UNING KASBIY FAOLIYAT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI Raximova Gulshanoy	61
12.	O'ZBEK XALQINING MODDIY VA NOMODDIY MADANIY MEROSI Ulug'bek Mirshayev Jasmina Hamroyeva	67
13.	QUYOSH FOTOELEKTR O'ZGARTGICHLARINING AXAMIYATI Tўлаков Жахонгир Тўракул ўғли Rahmonov Majidbek Zavqiy o'g'li	70
14.	XALQARO MARKETING TIZIMIDA TOVAR VA TOVAR SIYOSATI	77